

SUN'YI INTELEKT YORDAMIDA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINI EKSPERTIZADAN O'TKAZISH MASALALARI

Akmaldinov Yahyobek Xasanboy o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Ommaviy huquq fakulteti, 3-bosqich talabasi

E-mail: akmaldinovyahyobek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21871301>

KIRISH

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlarida raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt tizimlari hamda dasturlarining jadal sur'atda rivojlanib borishi davlat boshqaruvi hamda davlat huquqiy faoliyatining qonunlarni ijod qilishga bo'lgan norma ijodkorligi sohasiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Norma ijodkorligi faoliyatining tizimlashuvi, normativ-huquqiy hujjatlar sonining kundan kunga ortib borishi hamda ushbu hujjatlarining sifati va amaliy ta'siriga nisbatan qo'yilayotgan talablarning ortib borishi normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ekspertizadan o'tkazishning zamonaviy, o'ziga xos va samarali usullarini joriy etish masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini turli xil ekspertizalardan (huquqiy, lingvistik, korrupsiyaga qarshi va hakazo) o'tkazish norma ijodkorligi faoliyatining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ekspertizalar orqali hujjat loyihalarining milliy qonunchilik tizimimizga muvofiqligi, yuridik texnika qoidalariga qanchalik rioya etilganligi, korrupsiyaviy omillarning mavjud emasligi, hujjatning boshqa normalar bilan ziddiyatli jihatlari (kolliziyalar) mavjud emasligi aniqlanadi hamda bartaraf etiladi. Biroq bugungi kunda dunyo hamjamiyatida normativ-huquqiy hujjatlar hajmining ortib borishi - an'anaviy ekspertiza jarayonlarini ko'p vaqt hamda mehnat talab qiladigan, inson omili bilan bog'liq bo'lgan xato hamda texnik kamchiliklarga nisbatan moyilligini orttiradigan jarayon, katta hajmdagi axborotlarga tezkorlik bilan ishlov berish va ularni tahlil qilish imkoniyatini cheklaydigan usul sifatida namoyon qilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, sun'iy intellekt texnologiyalaridan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish jarayonida foydalanish yuqoridagi muammoga yechim sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Sun'iy ong qurilmalarining hozirgi kundagi imkoniyatlari normativ hujjatlar matnini avtomatik tahlil qila olish, mavjud qonunchilik hujjatlari bilan yangi loyiha matnini taqqoslay olish, bir-biriga zid bo'lgan hamda takrorlanuvchi huquq normalarini qisqa muddatda aniqlash, shuningdek, korrupsiyaviy, huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkoniyat yaratib beradigan shart-sharoitlarga baho berish orqali norma ijodkorligi samaradorligini oshirishga bevosita hissa qo'sha oladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham sun'iy intellektidan foydalanish imkoniyatlarini keng targ'ib qilish hamda davlatimiz faoliyatiga sun'iy ong qurilmalarini keng joriy qilish yuzasidan bir qator ishlarning amalga oshirilayotganligi, xususan 2025-yil 22-oktabr sanasida “Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”¹ PF-189-sonli, 2025-yil 21-avgust sanasidagi “Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”² PF-140-sonli Prezident farmonlarining qabul qilinganligi e'tiborli holat albatta. Biron shunga qaramasdan normativ-huquqiy hujjat loyihalarining aynan ekspertizadan o'tkazilishida sun'iy intellekt

¹ <https://lex.uz/docs/-7789403>

² <https://lex.uz/docs/-7696567>

imkoniyatlaridan foydalanishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, uning o'ziga xos jihatlari, afzallik va kamchiliklari qolaversa, bu boradagi xavf va cheklovlar borasida yetarli darajada ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib ulgurilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishida mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish, xorijiy tajribani tahlil qilish hamda sohaga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish tadqiqot maqsadi etib belgilandi.

Olimlar Ibrahim va Omoarebunign ta'kidlashicha³ sun'iy intellektning norma ijodkorligi faoliyatiga tatbiq qilinishi qonun loyihalarini tayyorlash jarayonini tezlashtiradi va normativ huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari o'rtasidagi ziddiyatlarni aniqlashga ko'maklashadi. Saulen, Makarcev, Tebayevlarning ta'kidlashicha norma ijodkorligi faoliyatida siyosiy, axloqiy va ijtimoiy omillar mavjud bo'lib, ularni sun'iy intellekt mustaqil baholash imkoniyatiga ega emas shunday ekan qonun ijodkorligi sohasida sun'iy intellekdan yordamchi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi

Ibrahim va Omoarebu o'zlarining "An Examination of Artificial Intelligence and Legislative Drafting Through a Comparative Lens" nomli tadqiqotida sun'iy intellekt qonun loyihalarini ishlab chiqish va tahlil qilish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Olimlarning fikricha, sun'iy intellekt katta hajmdagi normativ-huquqiy hujjatlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, huquqiy kolliziyalarni aniqlash hamda qonun loyihalarining amaldagi qonunchilikka muvofiqligini tekshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur fikrga qo'shilish mumkin, chunki norma ijodkorligi jarayonida huquqiy ekspertiza ko'p hollarda katta hajmdagi normativ materiallarni o'rganishni talab etadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari esa ekspertlarning vaqt sarfini kamaytirish va huquqiy tahlil sifatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq yakuniy huquqiy baho inson ekspert tomonidan berilishi maqsadga muvofiqdir. Saulen, Makarcev va Tebayev "Application of Artificial Intelligence Tools in the Legislative Process and the Classical Paradigm of Lawmaking: Challenges of Integration" nomli maqolasida sun'iy intellekt qonun ijodkorligining klassik modelini to'liq almashtira olmasligini qayd etadilar. Ularning fikricha, norma ijodkorligi faqat texnik jarayon bo'lmay, unda siyosiy, ijtimoiy va axloqiy omillar ham muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuv ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Darhaqiqat, sun'iy intellekt normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining texnik jihatlarini tahlil qilishi mumkin, biroq jamiyat ehtiyojlari va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini mustaqil ravishda belgilay olmaydi. Shu sababli sun'iy intellektni norma ijodkorligi subyekti emas, balki yordamchi vosita sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Hill, Waddington va Qiu "From Pen to Algorithm: Optimizing Legislation for the Future with Artificial Intelligence" nomli tadqiqotida katta til modellari (Large Language Models) normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini ishlab chiqish va tahrirlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar. Olimlarning fikricha, sun'iy intellekt qonun matnlarining uslubiy birxilligini ta'minlash va texnik xatolarni kamaytirishga yordam beradi. Mazkur fikr norma ijodkorligi amaliyoti nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Chunki huquqiy ekspertiza jarayonida ko'plab hujjatlarda terminologik nomuvofiqliklar va yuridik texnika qoidalarining buzilishi uchray turadi. Sun'iy intellekt bunday kamchiliklarni aniqlashda samarali vosita bo'lishi mumkin. Adhe Ismail Ananda o'zining "Artificial Intelligence as a Co-Legislator" nomli maqolasida sun'iy intellektni "hamkor qonun ijodkori" sifatida tavsiflaydi. Muallifning fikricha, AI huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlarni aniqlash va normativ bazaning uyg'unligini ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Bizningcha, ushbu yondashuv kelajakdagi norma ijodkorligi rivojlanish tendensiyalariga mos keladi. Chunki sun'iy intellekt minglab normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi bog'liqliklarni insondan tezroq aniqlash

³ <https://journals.aun.edu.ng/index.php/aunil/article/view/92>

imkoniyatiga ega. Bu esa huquqiy ekspertiza sifatini oshirishga xizmat qiladi. Aubakirova va Moldabekov "The Introduction of Artificial Intelligence Technology in Lawmaking: Modern Challenges, Risks and Prospects" nomli tadqiqotida sun'iy intellektni joriy etish bilan bog'liq xavf va tavakkalchiliklarga e'tibor qaratadilar. Xususan, ular algoritmlar faoliyatining shaffof emasligi va ma'lumotlar sifati bilan bog'liq muammolarni asosiy xavf sifatida ko'rsatadilar. Mazkur fikr bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. Chunki huquqiy ekspertiza natijalarining ishonchliligi foydalanilayotgan ma'lumotlarning sifati va to'liqligiga bevosita bog'liq. Shu sababli sun'iy intellektidan foydalanishda inson nazoratini saqlab qolish zarur. Kuttybaeva "Use of Artificial Intelligence in Legislation: Organizational and Legal Aspects" nomli maqolasida sun'iy intellekt qonun ijodkorligi jarayonlarining tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Muallif normativ-huquqiy hujjatlar monitoringini avtomatlashtirish va huquqiy ekspertiza xarajatlarini qisqartirish imkoniyatlariga alohida urg'u beradi. Ushbu fikrga qo'shilish mumkin. Sababi zamonaviy davlat boshqaruvida normativ-huquqiy hujjatlar sonining ortib borishi ularni doimiy monitoring qilishni talab etmoqda. Sun'iy intellekt esa ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Sharipov F.K. "Legal Foundations and Practical Proposals for Applying Artificial Intelligence Technologies in Uzbekistan's Legislative Process" nomli maqolasida O'zbekistonda norma ijodkorligi jarayonlarini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish zarurligini asoslaydi. Olim, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi ekspertiza va normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziyalarni aniqlashda AI imkoniyatlariga yuqori baho beradi. Mazkur yondashuv O'zbekiston uchun dolzarb hisoblanadi. Chunki normativ-huquqiy hujjatlar sonining ortib borishi ularni sifatli ekspertizadan o'tkazish uchun yangi texnologik yechimlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan sun'iy intellekt asosidagi huquqiy ekspertiza tizimlarini yaratish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellektning normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasidagi imkoniyatlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasida sun'iy intellektning qo'llanilishidagi eng istiqbolli yo'nalishlardan biri tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Huquqiy matnlarning murakkab semantik tuzilishi, maxsus terminologiyaga egaligi hamda ko'p bosqichli normativ mazmunni o'zida mujassam etishi ularni an'anaviy usullar orqali tahlil qilishni murakkablashtiradi. Kevin D. Ashley "Artificial Intelligence and Legal Analytics" asarida NLP texnologiyalari huquqiy matnlardan ma'lumotlarni ekstraksiya qilish, huquqiy kategoriyalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklarni aniqlash hamda hujjatlarni mazmuniy tasniflash imkonini berishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, mazkur texnologiyalar huquqiy axborotlarni qayta ishlash jarayonining samaradorligini sezilarli ravishda oshiradi. Tadqiqotchining ushbu pozitsiyasi normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos keladi. Chunki NLP algoritmlari normativ matnlardagi huquqiy tushunchalar, vakolatlar, majburiyatlar, istisnolar va cheklovlarni avtomatik ravishda aniqlash imkonini beradi. Natijada ekspertiza jarayonining tezkorligi va aniqligi ortib, inson omili bilan bog'liq ayrim kamchiliklarni kamaytirishga ko'maklashadi.

Hujjatlarni avtomatik tahlil qilish va solishtirish. Normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasining muhim elementlaridan biri yangi hujjat loyihalarini amaldagi qonunchilik bilan qiyosiy-huquqiy tahlildan o'tkazish hisoblanadi. Mazkur jarayon ko'plab normativ manbalarni o'rganish va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashni talab etadi. Hill, Waddington va Qiu "From Pen to Algorithm: Optimizing Legislation for the Future with Artificial Intelligence" nomli tadqiqotida katta til modellari (Large Language Models) normativ-huquqiy hujjatlarni avtomatik ravishda tahlil qilish, ularni o'zaro taqqoslash hamda mazmuniy o'xshashlik va tafovutlarni

aniqlash imkoniyatiga ega ekanligini qayd etadilar. Mualliflarning ta’kidlashicha, bunday texnologiyalar qonun ijodkorligi va huquqiy ekspertiza jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Mazkur ilmiy qarashdan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, sun’iy intellekt vositalari normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini amaldagi qonunchilik bilan kompleks qiyoslash imkonini beradi. Bu esa ekspertiza davomida yuzaga keladigan vaqt va resurs sarfini kamaytirib, huquqiy tahlilning sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarilishiga xizmat qiladi. **Normativ kolliziyalar va takrorlanishlarni aniqlash.** Huquqiy ekspertizaning asosiy vazifalaridan biri normativ-huquqiy hujjatlar o’rtasidagi kolliziyalarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo’yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Huquqiy kolliziyalar qonunchilik tizimining izchilligiga salbiy ta’sir ko’rsatib, huquqni qo’llash amaliyotida noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Ibrahim va Omoarebu o’z tadqiqotlarida sun’iy intellekt texnologiyalari normativ hujjatlar bazasini kompleks tahlil qilish orqali bir-biriga zid bo’lgan normalarni aniqlash imkoniyatiga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikriga ko’ra, AI vositalari qonun loyihalarini ishlab chiqish bosqichidayoq potensial kolliziyalarni aniqlash va ularning oldini olishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, Alice Witt va hammualliflari “Encoding Legislation” maqolasida mashina o’qiy oladigan qonunchilik (Machine-Readable Legislation) konsepsiyasi normativ hujjatlar o’rtasidagi mantiqiy va tizimli bog’liqliklarni avtomatik ravishda aniqlash imkonini berishini asoslaydilar. Mazkur ilmiy qarashlar huquqiy ekspertiza faoliyatini raqamlashtirish istiqbollari nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki sun’iy intellekt tizimlari minglab normativ-huquqiy hujjatlar o’rtasidagi ziddiyatlar va takrorlanishlarni qisqa vaqt ichida aniqlash imkoniyatiga ega bo’lib, qonunchilik tizimining ichki uyg’unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Korrupsiyaviy omillarni avtomatik aniqlash. Korrupsiyaga qarshi ekspertiza normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mazkur ekspertizaning asosiy maqsadi korrupsiyaga sharoit yaratishi mumkin bo’lgan huquqiy normalarni aniqlash va bartaraf etishdan iborat. Sharipov F.K. sun’iy intellekt texnologiyalaridan korrupsiyaga qarshi ekspertiza jarayonida foydalanish istiqbollari yuqori ekanligini qayd etadi. Olimning fikricha, AI tizimlari huquqiy noaniqliklar, ortiqcha diskretsion vakolatlar hamda korrupsiyaviy xavf tug’diruvchi formulirovkalarni avtomatik tarzda aniqlash imkoniyatiga ega. Aubakirova va Moldabekov ham sun’iy intellekt texnologiyalari normativ-huquqiy hujjatlardagi huquqiy tavakkalchiliklarni aniqlash va baholashda samarali vosita bo’lishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Mazkur yondashuv korrupsiyaga qarshi ekspertiza mexanizmlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki algoritmik tahlil vositalari normativ hujjatlarni oldindan belgilangan mezonlar asosida baholash imkonini beradi hamda subyektiv omillarning ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi.

Qonun loyihalarining amaldagi huquq tizimiga mosligini tekshirish. Normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasining muhim vazifalaridan biri qonun loyihalarining amaldagi huquq tizimiga muvofiqligini baholash hisoblanadi. Yangi normativ qoidalar mavjud huquq tizimining tarkibiy elementlari bilan uyg’unlashgan bo’lishi va yuqori yuridik kuchga ega hujjatlarga zid kelmasligi lozim. John Nay “Law Informs Code: A Legal Informatics Approach to Aligning Artificial Intelligence with Humans” nomli tadqiqotida huquqiy normalarni algoritmik shaklda modellashtirish va ular o’rtasidagi bog’liqliklarni avtomatik aniqlash imkoniyatlarini tahlil qiladi. Muallif huquqiy informatika vositalari qonunchilik tizimining ichki izchilligini ta’minlashga xizmat qilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Adhe Ismail Ananda sun’iy intellekt huquqiy tizimdagi normativ bo’shliqlarni aniqlash hamda normativ-huquqiy bazaning uyg’unligini ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo’lishini qayd etadi. Mazkur ilmiy qarashlar asosida

xulosa qilish mumkinki, sun'iy intellekt texnologiyalari qonun loyihalarining Konstitutsiya, kodekslar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini dastlabki bosqichda baholash imkonini beradi. Bu esa huquqiy ekspertiza sifatini oshirish, normativ kolliziyalarning oldini olish hamda qonunchilik tizimining yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba

Yevropa Ittifoqida sun'iy intellekt asosidagi huquqiy tahlil tizimlari. So'nggi yillarda Yevropa Ittifoqida sun'iy intellekt texnologiyalarini norma ijodkorligi va huquqiy ekspertiza jarayonlariga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yevropa Parlamenti huzurida tayyorlangan “AI and Monitoring the Application of EU Law” tadqiqotida sun'iy intellekt texnologiyalaridan qonunchilik monitoringi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, huquqiy ta'sirni prognozlash hamda amaldagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishda foydalanish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot muallifi Giovanni Sartorning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt huquqni qo'llash amaliyotidagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali qonunchilik samaradorligini baholash va normativ hujjatlarning amaliy natijalarini prognoz qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuvdan ko'rinadiki, Yevropa Ittifoqida sun'iy intellekt faqat texnik yordamchi vosita sifatida emas, balki qonunchilik sifatini monitoring qilish va normativ-huquqiy siyosatni shakllantirishning muhim elementi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, huquqiy ekspertiza jarayonida normativ kolliziyalarni aniqlash, huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish va qonunchilik ta'sirini baholashda AI texnologiyalarining o'rnini tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqida AI texnologiyalarini huquqiy sohaga joriy etishda shaffoflik, tushuntiriluvchanlik (explainability) va javobgarlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa norma ijodkorligi va huquqiy ekspertiza sohasida sun'iy intellektdan foydalanishda inson nazoratining ustuvorligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

AQSh va Singapurdagi LegalTech yechimlari. AQSh bugungi kunda LegalTech texnologiyalarini joriy etish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda sun'iy intellekt huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, sud amaliyotini prognozlash, huquqiy tadqiqotlar o'tkazish va normativ hujjatlarni tayyorlash jarayonlarida keng qo'llanilmoqda. Richard Susskind va Kevin Ashley kabi olimlar huquqiy faoliyatning muayyan tahliliy funksiyalarini avtomatlashtirish huquqshunoslarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydilar. AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt huquqiy ekspertlarning o'rnini bosuvchi emas, balki ularning intellektual imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, hujjatlarni avtomatik saralash, huquqiy tavakkalchiliklarni baholash va normativ bazani tahlil qilish jarayonlarida AI texnologiyalarining samaradorligi yuqori baholanmoqda. Singapur esa davlat boshqaruvi va qonunchilik faoliyatini raqamlashtirish borasida ilg'or tajribaga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda davlat organlari tomonidan huquqiy ma'lumotlarni raqamlashtirish, normativ hujjatlar bazalarini avtomatik tahlil qilish va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Singapur tajribasi sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruvi va huquqiy ekspertiza tizimlari bilan integratsiya qilishning samarali modelini namoyish etgan.

Rossiya va Estoniya tajribasi. Rossiya Federatsiyasida sun'iy intellektni huquqiy faoliyatga joriy etish bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda. Rossiyalik tadqiqotchilar AI texnologiyalaridan normativ-huquqiy hujjatlar monitoringi, kolliziyalarni aniqlash va huquqiy ekspertiza sifatini oshirish maqsadlarida foydalanish istiqbollarini faol o'rganmoqdalar. Ayniqsa, huquqiy axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan algoritmlar qonunchilik bazasini

tizimlashtirish va huquqiy tahlilni avtomatlashtirishga xizmat qilmoqda. Estoniya esa elektron hukumat (e-Government) tizimlari rivojlangan davlat sifatida sun'iy intellektni davlat boshqaruvi va huquqiy xizmatlarga integratsiya qilish bo'yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega. Ushbu mamlakatda davlat ma'lumotlar bazalarining o'zaro integratsiyasi huquqiy ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirgan. Natijada normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash jarayonlari sezilarli darajada soddalashtirilgan. Rossiya va Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqiy ekspertiza samaradorligini oshirishda faqat sun'iy intellektning o'zi emas, balki sifatli raqamli infratuzilma va integratsiyalashgan huquqiy ma'lumotlar bazalarining mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotlar tavsiyalari (OECD, UNESCO, BMT). Sun'iy intellektdan huquqiy faoliyatda foydalanish bo'yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan ham qator tavsiyalar ishlab chiqilgan. OECD tomonidan qabul qilingan Sun'iy intellekt tamoyillarida AI texnologiyalarini inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligi tamoyillariga muvofiq ravishda rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. OECD ekspertlarining fikricha, davlat organlari tomonidan qo'llaniladigan AI tizimlari shaffof, ishonchli va javobgar bo'lishi lozim. UNESCOning Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyalarida esa algoritmik shaffoflik, inson nazorati, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va javobgarlik mexanizmlarini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Tashkilot AI texnologiyalarini huquqiy va davlat boshqaruvi faoliyatiga joriy etishda inson huquqlarining ustuvorligini saqlab qolish zarurligini qayd etadi. BMT tizimi doirasida ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlarda ham sun'iy intellektning rivojlanishi inson manfaatlariga xizmat qilishi, huquqiy aniqlik va adolat tamoyillariga mos bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Shu bois xalqaro tashkilotlar sun'iy intellektni norma ijodkorligi va huquqiy ekspertiza faoliyatiga joriy etishda “inson markazlashgan yondashuv” (human-centered approach) prinsipiga amal qilishni tavsiya etadilar. Shunday qilib, xorijiy tajriba tahlili sun'iy intellekt texnologiyalari normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasining samaradorligini oshirish, huquqiy tahlilni avtomatlashtirish va qonunchilik sifatini takomillashtirish uchun katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq xalqaro amaliyot AI tizimlaridan foydalanishda shaffoflik, tushuntiriluvchanlik, javobgarlik va inson nazoratini saqlash zarurligini ham tasdiqlaydi.

Sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy va etik muammolari

Algoritmik xatoliklar va noxolis yondashuv xavfi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasiga joriy etilishi bilan bog'liq eng murakkab masalalardan biri algoritmik xatolik (algorithmic error) va tarfakashlik (algorithmic bias) muammosi hisoblanadi. Sun'iy intellekt tizimlari o'z faoliyatini mavjud ma'lumotlar bazasi asosida amalga oshiradi. Agar ushbu ma'lumotlar bazasida xatoliklar, nomutanosibliklar yoki subyektiv yondashuvlar mavjud bo'lsa, algoritm tomonidan shakllantiriladigan xulosalar ham xuddi shunday kamchiliklarni takrorlaydi. Cathy O'Neil o'zining “Weapons of Math Destruction” asarida algoritmlar ko'pincha obyektiv deb qabul qilinsa-da, amalda ular inson tomonidan yaratilgan ma'lumotlar asosida ishlashi sababli insoniy xatolar va stereotiplarni qayta ishlab chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, algoritmnining matematik tabiatga ega ekanligi uning adolatli yoki xolis ekanligini anglatmaydi. Mazkur ilmiy qarash huquqiy ekspertiza faoliyati uchun ham dolzarbdir. Chunki normativ-huquqiy hujjatlar ekspertisasi jarayonida noto'g'ri algoritmik xulosalar qonun loyihalarining sifatsiz baholanishiga yoki muhim huquqiy xavflarning e'tibordan chetda qolishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi ekspertiza, huquqiy kolliziyalarni aniqlash va normativ ta'sirni baholash kabi yo'nalishlarda algoritmik tarfakashlik

jiddiy oqibatlarni yuzaga keltirishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli sun'iy intellektdan foydalanishda ma'lumotlar sifati, algoritmik audit va mustaqil ekspert nazorati tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaffoflik va tushuntiriluvchanlik talabi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini huquqiy ekspertizaga joriy etish bilan bog'liq yana bir muhim muammo algoritmlar faoliyatining shaffofligi va tushuntiriluvchanligi hisoblanadi. Zamonaviy sun'iy intellekt tizimlarining aksariyati “qora kuti” (black box) tamoyili asosida ishlaydi, ya'ni tizim ma'lum bir xulosaga qanday kelgani foydalanuvchi uchun to'liq tushunarli bo'lmashligi mumkin. Luciano Floridi va Josh Cowls sun'iy intellekt etikasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida AI tizimlari faoliyatining tushuntiriluvchanligi demokratik boshqaruv va huquq ustuvorligi tamoyillarining muhim sharti ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, har qanday avtomatlashtirilgan qaror yoki tavsiya inson tomonidan tekshirilishi va izohlanishi mumkin bo'lishi kerak. Normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasi nuqtai nazaridan mazkur talab alohida ahamiyatga ega. Chunki huquqiy ekspertiza xulosalari davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar sun'iy intellekt tizimi ma'lum bir huquqiy kolliziya yoki korrupsiyaviy omil mavjudligi haqida xulosa bersa, ekspert ushbu xulosaning qanday asoslarda shakllanganligini tushuna olishi lozim. Shu sababli huquqiy ekspertizada qo'llaniladigan AI tizimlari uchun explainable AI (XAI) tamoyillarini joriy etish zarur hisoblanadi.

Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari. Sun'iy intellekt tizimlarining samarali ishlashi katta hajmdagi ma'lumotlar bilan chambarchas bog'liq. Huquqiy ekspertiza faoliyatida esa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, davlat organlarining ichki ma'lumotlari, statistik axborotlar va boshqa muhim ma'lumotlar bilan ishlash talab etiladi. Shoshana Zuboff raqamli texnologiyalar rivojlanishini tahlil qilar ekan, katta ma'lumotlar (big data) bilan ishlash jarayonlarida maxfiylik va axborot xavfsizligi muammolari tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi yoki ulardan maqsadsiz foydalanish fuqarolarning fundamental huquqlariga putur yetkazishi mumkin. Mazkur pozitsiya huquqiy ekspertiza sohasida ham to'liq namoyon bo'ladi. Chunki normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ayrim hollarda davlat siyosati, iqtisodiy strategiyalar yoki xavfsizlik masalalariga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Shu sababli sun'iy intellekt platformalaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik standartlariga rioya qilish ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

Sun'iy intellekt xulosasi uchun javobgarlik masalasi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy ekspertizaga joriy etilishi bilan bog'liq eng bahsli masalalardan biri javobgarlik institutidir. Agar AI tizimi tomonidan berilgan tavsiya yoki xulosa noto'g'ri bo'lib chiqsa, uning oqibatlari uchun kim javobgar bo'lishi kerakligi masalasi bugungi kunda ham to'liq hal etilmagan. Ryan Abbott “The Reasonable Robot” asarida sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi huquqning an'anaviy javobgarlik konsepsiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab qilayotganini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, sun'iy intellektning murakkablashuvi natijasida inson va texnologiya o'rtasidagi javobgarlik chegaralarini aniqlash tobora qiyinlashib bormoqda. Biroq huquq nazariyasining fundamental tamoyillaridan kelib chiqadigan bo'lsak, sun'iy intellekt mustaqil huquq subyekti hisoblanmaydi. Shu sababli uning faoliyati natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgarlik AI tizimini ishlab chiqqan, joriy etgan yoki undan foydalangan shaxslar zimmasiga yuklatilishi kerak. Normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasi sohasida ham sun'iy intellekt tomonidan tayyorlangan xulosalar maslahat yoki yordamchi tavsiya sifatida baholanishi,

yakuniy qaror esa vakolatli inson eksperti tomonidan qabul qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Inson omilining zarurligi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishiga qaramasdan, huquqiy ekspertiza faoliyatida inson omilining ahamiyati saqlanib qolmoqda. Huquq faqat mantiqiy qoidalar tizimi emas, balki ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, siyosiy manfaatlar va adolat tamoyillarini o'zida mujassam etuvchi murakkab ijtimoiy institut hisoblanadi. Richard Susskind huquqiy texnologiyalar rivojlanishini tahlil qilar ekan, kelajakda ko'plab huquqiy funksiyalar avtomatlashtirilishini tan olsa-da, huquqiy baholash, adolatni anglash va ijtimoiy manfaatlarni muvozanatlashtirish kabi vazifalar inson vakolatida qolishini qayd etadi. Mazkur ilmiy qarash norma ijodkorligi va huquqiy ekspertiza faoliyati uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki qonun loyihasining sifati faqat yuridik texnika talablariga mosligi bilan emas, balki uning jamiyat ehtiyojlari, inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillariga qanchalik mos kelishi bilan ham belgilanadi. Sun'iy intellekt normativ kolliziyalarni aniqlashi, hujjatlarni tahlil qilishi va tavsiyalar ishlab chiqishi mumkin, biroq u adolat, maqsadga muvofiqlik yoki ijtimoiy zarurat kabi kategoriyalarni inson darajasida baholay olmaydi. Shu bois huquqiy ekspertiza sohasida eng maqbul model “human-in-the-loop”, ya'ni sun'iy intellekt va inson eksperti hamkorligiga asoslangan model hisoblanadi. Mazkur modelda sun'iy intellekt tahliliy va texnik funksiyalarni bajaradi, inson esa huquqiy, axloqiy va siyosiy jihatdan yakuniy bahoni beradi. Aynan shunday yondashuv sun'iy intellektning afzalliklaridan samarali foydalanish bilan birga huquqning insonparvarlik mohiyatini saqlab qolish imkonini beradi.

Taklif va tavsiyalar

Sun'iy intellekt asosidagi huquqiy ekspertiza platformasini yaratish. Norma ijodkorligi jarayonida foydalanish uchun yagona milliy AI Legal Expertise Platformni yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazkur platforma normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini avtomatik tahlil qilish, amaldagi qonunchilik bilan taqqoslash, huquqiy kolliziyalarni aniqlash, yuridik texnika talablariga rioya etilganligini baholash hamda korrupsiyaviy omillarni aniqlash funksiyalarini bajarishi lozim. Bunday platforma, bir tomondan, huquqiy ekspertiza jarayonlarining tezkorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, ekspertlar faoliyatini analitik jihatdan qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Kelgusida ushbu tizimni milliy qonunchilik bazalari bilan integratsiyalash normativ-huquqiy hujjatlar monitoringining yangi mexanizmlarini shakllantirishi mumkin.

Normativ-huquqiy ma'lumotlar bazalarini standartlashtirish va mashina o'qiy oladigan formatga o'tkazish. Sun'iy intellekt texnologiyalarining samaradorligi bevosita foydalanilayotgan ma'lumotlar bazalarining sifati va tuzilishiga bog'liq. Shu sababli normativ-huquqiy hujjatlarni yagona standart asosida raqamlashtirish hamda ularni mashina o'qiy oladigan (machine-readable) formatlarga bosqichma-bosqich o'tkazish zarur. Xususan, har bir normativ-huquqiy hujjatning predmeti, sohasi, huquqiy kuchi, amal qilish muddati, bog'liq hujjatlar va o'zgartirishlar tarixini aks ettiruvchi metama'lumotlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa sun'iy intellekt tizimlariga normativ hujjatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniq tahlil qilish imkonini beradi.

Adliya organlari uchun AI-ekspertiza metodikasini ishlab chiqish. Hozirgi kunda huquqiy ekspertiza faoliyatida sun'iy intellektidan foydalanishning yagona metodologik asoslari mavjud emas. Shu bois Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertiza jarayonlarida AI texnologiyalaridan foydalanishning maxsus metodikasini ishlab chiqish zarur. Mazkur metodikada:

- sun'iy intellekt tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalar;

- ekspert tomonidan amalga oshiriladigan nazorat mexanizmlari;
- algoritmik audit tartibi;
- AI xulosalarini tekshirish mezonlari;
- ma'lumotlar xavfsizligi talablari;
- etik standartlar aniq belgilanishi lozim.
- Bunday metodika sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy aniqligi va amaliy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Inson va sun'iy intellekt hamkorligiga asoslangan “Hybrid Model”ni joriy etish.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan xalqaro tajriba sun'iy intellekt huquqiy ekspertni to'liq almashtira olmasligini ko'rsatdi. Huquqiy ekspertiza nafaqat texnik-huquqiy, balki siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy baholash elementlarini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli norma ijodkorligi sohasida “Human-in-the-Loop” yoki “Hybrid Expertise Model” konsepsiyasini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur modelga ko'ra: sun'iy intellekt hujjatlarni tahlil qiladi; kolliziyalar va xavflarni aniqlaydi; tavsiyalar ishlab chiqadi; biroq yakuniy huquqiy xulosa va qaror vakolatli ekspert tomonidan qabul qilinadi. Mazkur yondashuv bir vaqtning o'zida ham texnologik samaradorlikni, ham huquqiy ishonchlikni ta'minlash imkonini beradi.

Huquqshunoslarning sun'iy intellekt sohasidagi kompetensiyalarini rivojlantirish.

Sun'iy intellektni huquqiy ekspertiza faoliyatiga muvaffaqiyatli joriy etish uchun tegishli kadrlar salohiyatini shakllantirish zarur. Shu munosabat bilan yuridik ta'lim tizimiga “LegalTech”, “Artificial Intelligence and Law”, “Legal Data Analytics”, “Digital Law” kabi fanlarni bosqichma-bosqich kiritish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, amaliyotchi huquqshunoslar, ekspertlar va davlat xizmatchilari uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha muntazam malaka oshirish dasturlarini tashkil etish lozim. Chunki kelajakda huquqshunosning kasbiy kompetensiyasi faqat huquqiy bilimlar bilan emas, balki raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari bilan ham belgilanadi. O'zbekistonda norma ijodkorligi sohasidagi huquqiy ekspertiza faoliyatini takomillashtirish maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning alohida konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur konsepsiyada huquqiy, tashkiliy, texnologik va etik masalalar kompleks ravishda tartibga solinishi lozim. Bu esa normativ-huquqiy hujjatlar sifatini oshirish, qonunchilik tizimining izchilligini ta'minlash hamda zamonaviy raqamli davlat boshqaruvi talablariga mos huquqiy ekspertiza modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot doirasida norma ijodkorligi sohasidagi huquqiy ekspertiza faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning nazariy-huquqiy asoslari, xorijiy tajriba, milliy qonunchilik va amaliyot masalalari kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalari normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasi samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega. Xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), mashinali o'qitish (Machine Learning) va katta til modellari (Large Language Models) yordamida normativ-huquqiy hujjatlarni avtomatik tahlil qilish, huquqiy kolliziyalarni aniqlash, takrorlanuvchi normalarni topish, korrupsiyaviy omillarni baholash hamda qonun loyihalarining amaldagi qonunchilikka mosligini tekshirish mumkin. Ikkinchidan, sun'iy intellekt norma ijodkorligi jarayonida huquqiy ekspert faoliyatini to'liq almashtira olmaydi. Chunki huquqiy ekspertiza nafaqat normativ matnlarni texnik jihatdan tahlil qilishni, balki ijtimoiy ehtiyojlar, inson huquqlari, adolat tamoyillari, siyosiy maqsadga muvofiqlik va huquqiy siyosat bilan bog'liq masalalarni ham baholashni talab etadi. Mazkur jihatlar esa inson tafakkuri va huquqiy mulohazasining muhimligini saqlab qoladi. Uchinchidan, sun'iy intellektdan huquqiy ekspertiza

faoliyatida foydalanish algoritmik tarafkashlik, ma'lumotlar sifati, axborot xavfsizligi, algoritmlar shaffofligi va javobgarlik masalalari bilan bog'liq yangi huquqiy muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli AI texnologiyalarini norma ijodkorligi sohasiga joriy etishda huquqiy, tashkiliy va etik kafolatlarni yaratish zarur. To'rtinchidan, xorijiy davlatlar tajribasi sun'iy intellektidan foydalanishning eng samarali modeli inson va sun'iy intellekt hamkorligiga asoslangan "Human-in-the-Loop" yoki "Hybrid Model" ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu modelda sun'iy intellekt texnik va analitik vazifalarni bajaradi, yakuniy huquqiy xulosa esa inson eksperti tomonidan shakllantiriladi. Beshinchidan, O'zbekistonda norma ijodkorligi va huquqiy ekspertiza faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha muayyan huquqiy va institutsional asoslar shakllangan bo'lsa-da, sun'iy intellekt texnologiyalarini ushbu sohaga tizimli ravishda joriy etish uchun maxsus huquqiy mexanizmlar, metodikalar va texnologik platformalarni yaratish zarur.

Tadqiqot natijalari norma ijodkorligi va huquqiy ekspertiza faoliyatini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, tadqiqotda ilgari surilgan taklif va tavsiyalar normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish jarayonlarini avtomatlashtirish, huquqiy ekspertiza sifatini oshirish hamda qonunchilik tizimidagi kolliziyalar va huquqiy bo'shliqlarni barvaqt aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan Adliya vazirligi, norma ijodkorligi bilan shug'ullanuvchi davlat organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatida foydalanish mumkin. Mazkur ilmiy xulosalar sun'iy intellekt texnologiyalarini huquqiy ekspertiza faoliyatiga joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va konseptual dasturlar ishlab chiqishda ham nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari yuridik ta'lim tizimida "LegalTech", "Sun'iy intellekt va huquq", "Raqamli huquq" kabi fanlarni rivojlantirish hamda huquqshunoslarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot sun'iy intellektning norma ijodkorligi sohasidagi huquqiy ekspertizaga ta'sirining ayrim jihatlarini yoritishga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurati mavjud. Shunday qilib, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi norma ijodkorligi va huquqiy ekspertiza faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratmoqda. Biroq ushbu texnologiyalarni samarali qo'llash uchun huquqiy, etik va tashkiliy mexanizmlarning uyg'unligini ta'minlash zarur. Aynan shunday yondashuv huquqiy ekspertiza sifatini oshirish, normativ-huquqiy hujjatlar tizimining izchilligini ta'minlash va zamonaviy raqamli davlat boshqaruvi talablariga mos huquqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ananda, A. I. (n.d.). Artificial intelligence as a co-legislator: Opportunities and challenges in modern lawmaking.
2. Ariai, F., Mackenzie, J., & Demartini, G. (2024). Natural language processing for the legal domain: A survey of tasks, datasets, models, and challenges.
3. Ashley, K. D. (2017). Artificial intelligence and legal analytics: New tools for law practice in the digital age. Cambridge University Press.
4. Ashley, K. D. (2017). Artificial intelligence and legal analytics. Cambridge University Press.
5. Ibrahim, U., & Omoarebu, N. S. (2025). An examination of artificial intelligence and legislative drafting through a comparative lens. AUN Journal of Law.
6. Kalaycioglu, S., Liu, B., Hong, C., & Xie, H. (2025). AI-powered legal intelligence system architecture: A comprehensive framework for automated legal consultation and analysis.

7. Katz, D. M., Dolin, R., & Bommarito, M. J. (Eds.). (2021). *Legal informatics*. Cambridge University Press.
8. Katz, D. M., Hartung, D., Gerlach, L., Jana, A., & Bommarito, M. J. (2023). *Natural language processing in the legal domain*.
9. Nay, J. J. (2021). *Natural language processing for legal texts*. In D. M. Katz, R. Dolin, & M. J. Bommarito (Eds.), *Legal informatics*. Cambridge University Press.
10. Nay, J. J. (n.d.). *Law informs code: A legal informatics approach to aligning artificial intelligence with humans*.
11. OECD. (n.d.). *OECD framework for the classification of AI systems and AI governance reports*. OECD Publishing.
12. Ogunode, I. (2026). *AI-assisted legal drafting: Prompt engineering, human oversight, and the limits of existing professional conduct rules*. SSRN.
13. Rahman, M. M., et al. (2025). *Natural language processing in legal document analysis software: A systematic review of current approaches, challenges, and opportunities*. *International Journal of Innovative Research and Scientific Studies*.
14. Sartor, G. (2025). *AI and monitoring the application of EU law*. European Parliament.
15. Saulen, M., Makarcev, A., & Tebayev, K. (n.d.). *Application of artificial intelligence tools in the legislative process and the classical paradigm of lawmaking: Challenges of integration*.
16. Sharipov, F. K. (2025). *Legal foundations and practical proposals for applying artificial intelligence technologies in Uzbekistan's legislative process*. *International Journal of Law and Criminology*.
17. Susskind, R. (2017). *Tomorrow's lawyers: An introduction to your future* (2nd ed.). Oxford University Press.
18. Susskind, R. (2019). *Online courts and the future of justice*. Oxford University Press.
19. Susskind, R. (n.d.). *The future of law*. Oxford University Press.
20. Vladika, J., Meisenbacher, S., Preis, M., Klymenko, A., & Matthes, F. (2024). *Towards a structured overview of use cases for natural language processing in the legal domain: A German perspective*.
21. UNESCO. (2021). *Recommendation on the ethics of artificial intelligence*. UNESCO.
22. European Parliament. (2025). *AI and monitoring the application of EU law*.
23. OECD. (2024). *OECD AI principles*. OECD Publishing.
24. Cambridge University Press. (2021). *Legal informatics*.
25. Oxford University Press. (2019). *Online courts and the future of justice*.
26. Oxford University Press. (2017). *Tomorrow's lawyers: An introduction to your future* (2nd ed.).
27. Cambridge University Press. (2017). *Artificial intelligence and legal analytics: New tools for law practice in the digital age*.
28. SSRN. (2026). *AI-assisted legal drafting: Prompt engineering, human oversight, and the limits of existing professional conduct rules*.
29. OECD Publishing. (n.d.). *OECD framework for the classification of AI systems and AI governance reports*.
30. UNESCO. (2021). *Recommendation on the ethics of artificial intelligence*.